

Andijon viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Andijon viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Uslubiy tushuntirishlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **28 107,3** mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **26 527,6** mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – **1 415,2** mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – **164,5** mlrd so'mni tashkil qildi.

Andijon viloyati 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Andijon viloyati hududlari kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Ulug'nor (**117,1 %**), Bo'ston (**111,8 %**), Buloqboshi (**106,9 %**), Marhamat (**106,8 %**) va Baliqchi (**105,7 %**) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Xo'jaobod tumanida (**100,4 %**), Shahrixon (**101,6 %**), Andijon shahrida (**101,7 %**), Oltinko'l (**102,2 %**) va Qo'rg'ontepa (**102,7 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot
(xizmat)lari hajmi hududlar kesimida**

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da
Andijon viloyati	28 107,3	104,7
Andijon shahri.	801,7	101,7
Xonobod shahri	161,8	102,8
Oltinko'l tumani	1 951,0	102,2
Andijon tumani	1 376,7	104,7
Baliqchi tumani	2 458,5	105,7
Bo'ston tumani	1 124,4	111,8
Buloqboshi tumani	1 123,4	106,9
Jalaquduq tumani	3 171,9	104,8
Izboskan tumani	1 896,3	103,1
Ulug'nor tumani	1 235,6	117,1
Qo'rg'ontepa tumani	1 850,3	102,7
Asaka tumani	3 539,5	102,8
Marhamat tumani	2 209,0	106,8
Shahrixon tumani	2 106,2	101,6
Paxtaobod tumani	1 975,6	105,6
Xo'jaobod tumani	1 125,2	100,4

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **26 100,6** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **103,2 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **12 705,6** mlrd so'mni (**104,4 %**), chorvachilik mahsulotlari **13 395,0** mlrd so'mni (**101,7 %**) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (**3 354,9** mlrd so'm), Jalaquduq (**2 920,0** mlrd so'm), Baliqchi (**2 273,7** mlrd so'm) va Marhamat (**2 141,2** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahrida (**156,2** mlrd so'm), Andijon shahrida (**771,5** mlrd so'm) Ulug'nor (**942,0** mlrd so'm) va Xo'jaobod (**1 053,1** mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Ulug'nor (**111,8 %**), Bo'ston (**109,1 %**), Marhamat (**106,0 %**) tumanlarida qayd etildi.

Oltinko'l (**100,5 %**), Shahrixon (**100,5 %**) hamda Izboskan (**100,9 %**) tumanlarida esa boshqa hududlarga nisbatan past o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **67,4 foizi** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **23,0 foizi** fermer xo'jaliklariga, **9,6 foizi** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da
Andijon viloyati	12 705,6	104,4
Andijon shahri.	432,7	101,5
Xonobod shahri	77,3	102,6
Oltinko'l tumani	770,6	99,3
Andijon tumani	792,1	104,7
Baliqchi tumani	901,2	105,7
Bo'ston tumani	497,0	117,1
Buloqboshi tumani	530,7	107,7
Jalaquduq tumani	1 495,3	102,4
Izboskan tumani	1 033,5	101,2
Ulug'nor tumani	357,9	126,9
Qo'rg'on tepa tumani	665,6	103,6
Asaka tumani	1 756,5	102,3
Marhamat tumani	1 230,7	106,0
Shahrixon tumani	784,1	101,1
Paxtaobod tumani	854,4	105,1
Xo'jaobod tumani	526,1	104,4

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



**2026-yil yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)**

	Sabzavotlar	2025-yilning mos davriga nisbatan, %da
Andijon viloyati	479 420,6	106,7
Andijon shahri.	28 265,8	105,3
Xonobod shahri	2 707,1	102,7
Oltinko'l tumani	16 492,7	118,3
Andijon tumani	57 586,9	104,7
Baliqchi tumani	21 515,3	121,0
Bo'ston tumani	16 091,4	113,0
Buloqboshi tumani	17 205,9	122,3
Jalaquduq tumani	26 397,9	121,0
Izboskan tumani	67 927,1	100,4
Ulug'nor tumani	11 020,7	142,9
Qo'rg'on tepa tumani	33 404,7	110,0
Asaka tumani	110 033,3	100,1
Marhamat tumani	27 877,3	106,2
Shahrixon tumani	9 118,0	109,5
Paxtaobod tumani	11 106,7	101,6
Xo'jaobod tumani	22 669,8	103,9

Joriy davrda sabzavotlarning **27,9 foizi** fermer xo'jaliklari, **63,7 foizi** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **8,4 foizi** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi 13 395,0 mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 101,7 %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (**1 598,4** mlrd so'm), Jalaquduq (**1 424,7** mlrd so'm), Baliqchi (**1 372,4** mlrd so'm), Shahrixon (**1 186,8** mlrd so'm) va Oltinko'l (**1 070,8** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahrida (**78,9** mlrd so'm), Andijon shahrida (**338,7** mlrd so'm) va Andijon tumani (**522,1** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Xo'jaobod (**106,4 %**), Marhamat (**106,1 %**), Buloqboshi (**102,4 %**), Jalaquduq (**102,3 %**) tumanlarida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan **101,7 %**, sog'ib olingan sut **100,3 %**, olingan tuxum **113,8 %**, qirqib olingan jun **103,6 %**, ni tashkil qildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Miqdori	O'sish (kamayish) sur'ati, %da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	105,8	101,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	14,4	116,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	75,6	97,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,8	110,9
Sut, ming tonna	435,5	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	46,0	122,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	380,9	99,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,7	74,1
Tuxum, mln dona	418,1	113,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	64,3	144,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	291,8	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	62,0	194,5
Jun, tonna	899,2	103,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	112,7	110,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	774,3	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,2	121,2
Baliq, tonna	7 067,7	129,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3 699,4	140,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	738,0	115,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2630,2	119,6

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **13,6 foizi** fermer xo'jaliklari hissasiga, **71,4 foizi** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **15,0 foizi** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **10,5 foizi** fermer xo'jaliklari, **87,5 foizi** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **2,0 foizi** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **15,4 foizi** fermer xo'jaliklariga, **69,8 foizi** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **14,8 foizi** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **12,5 foizi** fermer xo'jaliklari, **86,1 foizi** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **1,4 foizi** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning **52,4 foizi** fermer xo'jaliklariga, **10,4 foizi** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **37,2 foizi** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik
mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Go'sht (tirik vaznda) (ming tonna)	Sut (ming tonna)	Tuxum, mln dona	Baliq (tonna)
Andijon viloyati	105,8	435,5	418,1	7 067,7
Andijon shahri.	3,0	9,6	9,7	26,9
Xonobod shahri	0,9	0,9	3,4	43,1
Oltinko'l tumani	9,3	30,4	26,6	152,9
Andijon tumani	4,2	15,4	21,8	153,0
Baliqchi tumani	13,0	31,8	32,6	178,2
Bo'ston tumani	4,1	22,9	16,2	80,1
Buloqboshi tumani	5,1	12,9	9,8	80,3
Jalaquduq tumani	12,2	42,9	33,7	106,6
Izboskan tumani	4,2	28,9	14,4	133,5
Ulug'nor tumani	5,2	15,5	23,0	4 191,4
Qo'rg'ontepa tumani	6,9	41,6	18,3	129,6
Asaka tumani	12,7	50,6	84,1	197,4
Marhamat tumani	5,1	37,4	30,0	1 203,6
Shahrixon tumani	7,1	52,4	41,2	38,0
Paxtaobod tumani	8,6	24,4	42,8	56,6
Xo'jaobod tumani	4,2	17,9	10,3	296,5

IV. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhidagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shundan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://andstat.uz/uz/default/press-relizlar/13586-2026>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Mamajonov
74 224-80-00 (6110)

Manzil:

